

JOURNAL OF

NATURAL SCIENCE

<https://natscience.jdp.uu.z>

2025 / №1 (18)



Chemistry
Biology
Geography

TAHRIR HAY’ATI

Bosh muharrir

Yaxshiyeva Z.Z.
k.f.d., professor

Mas’ul kotib

Muradova D.K.

Muassasa

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jurnal 4 marta chiqariladi
(har chorakda)

Jurnalda chop etilgan ma’lumotlar
aniqligi va to‘g‘riligi uchun mualliflar
mas’ul.

Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manbaa
aniq ko‘rsatilishi shart.

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tabiiy fanlar fakulteti

Tabiiy fanlar Journal of Natural Science-elektron jurnali

<https://natscience.jdpu.uz>

TAHRIRIYAT A’ZOLARI

Bosh muharrir

Yaxshiyeva Zuhra Ziyatovna
k.f.d., professor

Tahririyat a’zolari:

1. Yaxshiyeva Z.Z. – k.f.d., professor JDPU.
2. Shilova O.A. – k.f.d., professor I.V. Grebenshikov nomidagi Rossiya FA Silikatlar kimyosi instituti.
3. Markevich M.I. – f.m.f.d., professor Belarussiya FA.
4. Elbert de Josselin de Jong – professor, Niderlandiya.
5. Anisovich A.G. – f.m.f.d., professor Belarussiya FA.
6. Kodirov T. – k.f.d., professor TKTI.
7. Abduraxmonov E. – k.f.d., professor SamDU.
8. Nasimov A. – k.f.d., professor SamDU.
9. Sanova Z.A. – k.f.d., professor O‘zMU.
10. Mavlonov X. – b.f.d., professor JDPU.
11. Usmanova X.U. – professor URUXU.
12. Qutlimurodova N.X. – k.f.d., dotsent O‘zMU.
13. Nuraliyeva G.A. – dotsent O‘zMU.
14. Sultonov M.M. – k.f.d., dotsent JDPU.
15. Xudanov U.O. – t.f.n., dotsent JDPU
16. Murodov K.M. – dotsent SamDU.
17. Abduraxmonov G. – dotsent O‘zMU.
18. Yangiboyev A. – k.f.f.d., (PhD), dotsent O‘zMU.
19. Xakimov K.M. – g.f.n., professor v/b. JDPU.
20. Azimova D.E. – b.f.f.d., (PhD) dotsent. JDPU.
21. G‘o‘dalov M.R. – g.f.f.d., (PhD), dotsent JDPU.
22. Ergashev Q.X. – dotsent TDPU.
23. Orziqulov B. – k.f.f.d., (PhD) O‘zMU.
24. Kutlimurotova R.H.-SVMUTF
24. Xamrayeva N. – dotsent JDPU.
25. Rashidova K. – dotsent JDPU.
26. Inatova M.S. – dotsent JDPU.

D.K.Muradova-dotsent

H.S.Musayeva-talaba

Jizzax davlat pedagogika universiteti

N.Normatova—Sh.Rashidov tumani 10-son maktab o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada multimedya texnologiyalarining Vitaminlar mavzusini o’qitishda qo’llanilish imkoniyatlari va yutuqlari yoritilgan.

Kalit so’zlar: Multimedya, texnologiya, kompyuter, dastur, vitaminlar, loyiha.


Organizmning muayyan darajada rivojlanishi uchun asosiy oziqa komponentlar bilan bir qatorda minor komponentlar ham kerak. Ular qatoriga organik va anorganik birikmalar kirib, organik birikmalaridan biri - bu vitaminlar. Ulaming ko‘pchili fermentlarning koferment qismini tashkil qilib, fermentativ jarayonlami boshqarib turadi. Vitaminlaming nasliy va orttirilgan yetishmasligi turli xil kasalliklar kelib chiqishiga, o’sish va rivojlanishdan ortda qolishiga, to‘qimalar va hujayralar yangilanishi va regeneratsiyasining susayishiga olib keladi. Shuning sababdan o’quvchilar vitaminlar ahamiyati, ta’sir mexanizmi, etishmasligi va ortiqcha bo’lganda qanday salbiy o’qibatlar kuzatilishi, qaysi ozuqa maxsulotlarida qanday turdagи vitaminlar uchrashi to’g’risida bilishi kerak. Shuning uchun o’quvchiga vitaminlar mavzusini o’qitishning pedagogik asoslarini ishlab chiqish, buning uchun esa eng ilg`or zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish dolzarb hisoblanadi.

Multimedia texnologiyalariga asoslangan dasturlarning kimyo ta’limida qo’llanilishi ta’lim samadorligini oshrishda muhim ahamiyatga ega yo’nalish hisoblanadi. Multimedia texnologiyalariga asoslangan dasturlar yordamida olingan bilimlar ma’lumotlar tuzilishining aniqligi, optimallahgan hajm, yopiqlik, kontentning o’zini o’zi ta’minlashi bilan xarakterlanadi. Kimyo darslarida olingan bilimlarni mustahkamlash, tez-tez takrorlab turishlari uchun imkoniyatlar yaratish maqsadida turli kompyuter va smartfonlarda foydalanish imkonini beruvchi bir

qancha dasturlar mavjud bo’lib ulardan biri AutoPlay Media Studio dasturi haqida, dasturning foydalanish imkoniyatlari, kerakli mavzular doirasida foydali fayllar yaratish to’g’risida quyida to’xtalib o’tamiz. Bu dastur olingan bilimlarni mustaxkamlashni nafaqat kompyuter yordamida, balki o’z smartfonlari orqali vaqtida va istalgan joyda olingan bilimlarini mustaxkamlash imkonini beradi


Multimedia texnologiyalariga asoslangan amaliy dasturlarni yaratish uchun AutoPlay Media Studio dasturidan foydalanish foydalanuvchilar uchun juda oson va qulay interfeysni taqdim etadi. AutoPlay Media Studio bilan ishlashda deyarli dasturlash ishlari talab qilinmaydi[1].

Kompyuterimizga dastur o’rnatilgandan so’ng kompyutering ish stolida quyidagi yorliq paydo bo’ladi(1-2-rasmlar).



1-rasm. Dastur o’rnatilgan kompyuterimizning ishchi oynasi

Sichqoncha tugmasini “Создат новый проект” yozuvini ustiga bosamiz (1-rasm).



2-rasm. Dastur yordamida yangi loyiha tayyorlash ishchi oynasi

Yuqoridagi oyna paydo bo`ladi, u yerda “пустой проект” nomli shablon tanlanadi (2-rasm).

Belgilangan joydan proyektni necha sahifani tashkil qilishi tanlanadi. So`ngra sichqonchaning o`ng tugmasini bosib kerakli rasm qo`yiladi. Buning uchun avvalroq fon uchun rasm tanlanib xotiraga saqlangan bo`lishi kerak [2].

AutoPlay Media Studio dasturi yordamida yaratilgan loyihamiz quyidagi ko’rinishga ega bo’ladi(3-rasm).




3-rasm. AutoPlay Media Studio dasturi yordamida yaratilgan loyihaning 1-sahifasi

Rasm qo`yilgandan so`ng keying sahifaga o`tiladi (4-rasm)



4-Rasm. AutoPlay Media Studio dasturi yordamida yaratilgan loyihaning 2-sahifasi

Ikkinchi sahifaga ham rasm tanlanadi va tugmlar o`rnataladi, har bir tugmaga ma`lumot kiritiladi. Natijada har bir vitamining ustiga sichqoncha tugmasini bosilganda o`sha vitaminga tegishli bo`lgan ma`lumotlar ekranda namoyon bo`ladi(5-6-rasmlar).



5-rasm.Vitamin A tugmasiga
kiritilgan ma`lumotlar



6-rasm.Vitamin H tugmasiga
kiritilgan ma`lumotlar

Ushbu yaratilgan loyihani biz elektron bloknot yoki elektron ma`lumotnomaga deb atasak bo`ladi. Buni har bir o`quvchi, talaba yoki har qanday inson o`z smartfoniga saqlab olsa maqsadga muvofiq bo`ladi. Ushbu elektron ma`lumotnomaga har bir insonga kundalik ovqatlanish ratsioniga e`tiborli bo`lishlariga, sog`lom ovqatlanish menyusini tuzishlariga ko`makchi bo`la oladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

- 1.M.M.Sultonov, T.A.Jo`lbayev, N.O.Xolboyev, A.A.Bakaxonov, B.N.Babayev. Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo`llash. “Ilm nuri” MCHJ. Jizzax-2024
2. Muradova D, N.Normatova,Ulasheva R.Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturning rasmiy ro`yxatdan o`tkazilganligi to`g`risidagi guvohnoma(№ DGU 44833)